



MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR

PhD, dots. **Toshaliyeva Saodat**
Termiz davlat universiteti
ORCID: 0000-0002-0271-6534
saodattoshaliyeva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanish holatini baholash usullari va ustuvor yo'nalishlar bayon etilgan. O'zbekiston mintaqalarining iqtisodiy rivojlanish holati dinamik va trend tahlil, klaster tahlil, SWOT tahlil va kompozit indekslar usullari orqali tahlil qilinib, taqqoslama solishtirish orqali guruhlash asosida baholangan. Shuningdek, mintaqalarni yanada rivojlantirishning istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqish va ularni samarali amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari taklif etilgan. Mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanish holatini baholash bo'yicha mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: YAHM, hudud, mintaq, mintaq iqtisodiyoti, resurs, klaster, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, indeks.

ОЦЕНКА СОСТОЯНИЯ РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕГИОНОВ: АНАЛИЗ И ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ

PhD, доц. **Тошалиева Саодат**
Термезский государственный университет

Аннотация. В данной статье изложены методы оценки состояния развития экономики регионов и приоритетные направления. Состояние экономического развития регионов Узбекистана проанализировано с использованием методов динамического и тренд-анализа, кластерного анализа, SWOT-анализа и методов составных индексов, а также оценено на основе сравнительного сопоставления и группировки. Кроме того, предложены перспективные стратегии дальнейшего развития регионов и основные направления их эффективной реализации. Разработаны авторские подходы к оценке состояния развития региональной экономики.

Ключевые слова: ВРП, территория, регион, региональная экономика, ресурс, кластер, социально-экономическое развитие, индекс.

ASSESSMENT OF THE STATE OF REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT: ANALYSIS AND PRIORITY DIRECTIONS

PhD, assoc. prof. **Toshaliyeva Saodat**
Termez State University

Abstract. *This article presents methods for assessing the state of regional economic development and outlines priority directions. The state of economic development in the regions of Uzbekistan is analyzed using dynamic and trend analysis, cluster analysis, SWOT analysis, and composite index methods, and is evaluated through comparative grouping. Furthermore, promising strategies for the further development of regions and key directions for their effective implementation are proposed. Authorial approaches to assessing the development status of regional economies have also been developed.*

Keywords: GRP, territory, region, regional economy, resource, cluster, socio-economic development, index.

Kirish.

Ma'lumki, mamlakat har bir hududining iqtisodiy rivojlanishi uning barqaror va muvozanatlashgan iqtisodiy o'sishida muhim ahamiyatga ega. Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy farqlar, ularning resurs salohiyati va infratuzilmaviy imkoniyatlari rivojlanish sur'atlariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham mintaqalarning iqtisodiy holatini to'g'ri baholash samarali iqtisodiy islohotlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Tabiiyki, har bir hududning o'ziga xos salohiyati, resurs bazasi va geografik joylashuvi unga nisbatan individual yondashuvni talab qiladi. Masalan, sanoatga ixtisoslashgan hududlar uchun yuqori qiymatli texnologiyalar va logistika infratuzilmasi muhim bo'lsa, agrar hududlar uchun sug'orish, qayta ishlash klasterlari va eksport infratuzilmasi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, hududlarni iqtisodiy baholash natijalariga asoslanib, maqsadli va manzilli hududiy rivojlanish dasturlari ishlab chiqilishi, iqtisodiy islohotlarning hududlarda samarali amalga oshirishini ta'minlaydi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining barqaror va mutanosib rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Hududlar salohiyatidan samarali foydalanish, mintaqalarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ob'ektiv baholash bugungi kunning eng muhim masalaridan biri sanaladi (Mirziyoyev, 2021). Bularning barchasi mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Zero, bugungi kunda respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor vazifalaridan biri - bu ishlab chiqarish korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, tashqi va ichki bozorlar uchun sifatli, raqobatbardosh mahsulotlarni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish va sotishda zamonaviy savdo xizmatlarini tashkil qilish hamda ushbu xizmat imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi (Xolbekova, 2020). Bu esa mamlakatimiz mintaqalari iqtisodiyotining rivojlanish holatini tahlil qilish va baholashni taqozo etadi.

Albatta, bugungacha mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanish holatini baholash bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bu borada nazariy qarashlar va amaliy ko'nikmalar ham mavjud. Xususan, bu borada quyidagilarni keltirish mumkin.

Har bir mintaqaning o'ziga xos iqtisodiy salohiyati mavjud bo'lib, uni to'g'ri baholash va undan samarali foydalanish mintaqaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi (Qulmatov, 2020).

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy holatiga baho berish va rivojlanish darajasidagi differensiyalashuvni aniqlash ikki blok: iqtisodiy va ijtimoiy bloklar bo'yicha hisoblash mumkin (Sodiqov, 2024).

Hududlarni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, tabiiy xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimi joriy etildi (Fazliddinova, 2024).

Mintaqaning rivojlanish yo'llarini real baholash, bu rivojlanishning maqbul boshqaruv echimlarini ilmiy asoslash uchun ustuvor variantlarni aniqlashdir (Berkinov va boshq., 2010).

Hududlar salohiyatidan samarali foydalanish, mintaqalarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ob'ektiv baholash bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri sanaladi (Rajabov, 2024).

Mintaqalar barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda esa mintaqalardagi umumiy demografik vaziyatni, atrof-muhitning holatini, real rivojlanish darajasini tavsiflovchi integral ko'rsatkichlardan foydalangan (Grishina, Polynev, 2021).

Demak, Har bir hududning tabiiy, iqtisodiy va inson kapitali resurslaridan to'liq va samarali foydalanish – rivojlanishda hal qiluvchi omildir. Shuningdek, hududlarning iqtisodiy rivojlanishni baholashda statistik ma'lumotlar, raqamli texnologiyalar, ekspert xulosalari va tizimli tahlil usullari o'zaro uyg'unlashgan holda qo'llanilishi kerak. Bu esa mamlakatda barqaror va muvozanatli hududiy siyosat yuritishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash, statistik jadval, dinamik va trend tahlil usullari, klaster tahlil usuli, SWOT tahlil usuli va kompozit indekslar usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mintaqaviy iqtisodiyotni baholashning asosiy maqsadlari sifatida mintaqalarda iqtisodiy o'sish sur'atini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish darajasini baholash, investitsiyaviy jozibadorlikni baholash, ishsizlik va bandlik darajasini tahlil qilish hamda tarmoqlararo muvozanatni baholash kabilar olinadi.

Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini baholashda quyidagi asosiy usullar qo'llaniladi:

1. Dinamik va trend tahlil usullari;
2. Klaster tahlil usuli;
3. SWOT tahlil usuli;
4. Kompozit indekslar usuli.

Dinamik va trend tahlil usullari. Ushbu usullarda vaqt oralig'idagi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida rivojlanish tendensiyalari aniqlanadi. Jumladan, mintaqadagi YAHMning o'sish yoki pasayish tendensiyalari, iqtisodiy islohotlar ta'siri, investitsiya oqimlarining dinamikasi tahlil qilinadi.

Mazkur usullar asosida 2010-2024-yillar mobaynida YAHM va aholi jon boshiga YAHMning o'sish sur'atlari bo'yicha tahlillar amalga oshirildi.

Natijalarga ko'ra, mintaqalar bo'yicha umumiy iqtisodiy faollik quyidagicha baholandi:

- yuqori iqtisodiy faollik: Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona;
- pasayish yo'nalishida: Qoraqalpog'iston, Surxondaryo;
- barqaror holat: Andijon, Buxoro, Namangan, Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida kuzatilgan.

1-jadval

**Hududlar bo'yicha YAHM hajmining dinamik va trend tahlil natijalari
(2010-2024-yillarda)**

Hudud	Trend yo'nalishi (YAHM)	Izoh
Qoraqalpog'iston	↓ pasayish	2010-2016 yuqori, keyinchalik sustlashgan
Andijon	→ barqaror	O'zgarishlar katta emas
Buxoro	→ barqaror	O'sish, lekin juda sekin
Jizzax	→ barqaror	Kichik farqlar bilan
Qashqadaryo	↑ o'sish	So'nggi yillarda sezilarli
Navoiy	↑ o'sish	Pasaygan, keyin tiklangan
Namangan	→ barqaror	O'zgarishlar kichik
Samarqand	↑ o'sish	Trend doimiy ijobiy
Surxondaryo	↓ pasayish	O'sish sur'ati kamaygan
Sirdaryo	→ barqaror	O'zgarish kam
Toshkent viloyati	→ barqaror	Tendensiya ijobiy
Farg'ona	↑ o'sish	O'sish sur'ati yaxshi
Xorazm	→ barqaror	O'rtacha ko'rsatkichlar
Toshkent shahri	↑ o'sish	Eng yuqori trendlardan biri

Manba: muallif tahlillari asosida tuzilgan.

Klaster tahlil usuli. Ushbu usulda o'xshash iqtisodiy xususiyatlarga ega hududlar aniqlanadi va klasterlarga bo'linadi.

Quyida O'zbekistonning 14 ta hududi uchun "Klaster tahlil" usuli orqali iqtisodiy o'xshash xususiyatlari bo'yicha hududlarni guruhlash (klasterlash) amalga oshiriladi. Ushbu tahlilda YAHM, aholi jon boshiga YAHM, sanoat mahsulotlari va yaratilgan xizmatlarning o'sish sur'atlari hamda investitsiya faolligi kabi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar asos qilib olindi.

2-jadval

O'zbekiston hududlarining klasterlash mezonlari asosida tahlili

Klasterlar	Tarkibi	Xususiyatlari
1-klaster: Yirik iqtisodiy drayver hududlar	Toshkent shahri, Toshkent, Samarqand, Farg'ona	Yuqori xizmatlar sohasi rivoji, YAHM va aholi jon boshiga YAHM bo'yicha yuqori o'sish, kuchli sanoat va transport-logistika infratuzilmasi, innovatsion salohiyat va biznes faolligi yuqori
2-klaster: Sanoat va xom ashyo salohiyatiga tayanuvchi hududlar	Navoiy, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo	Sanoat va qazilma boyliklarga tayanilgan iqtisodiyot, investitsiya faolligi o'rta yoki past, lekin barqaror o'sish, YAHM o'sishi mavjud, ammo xizmatlar sohasi zaif
3-klaster: Agrar va eksportga yo'naltirilgan hududlar	Xorazm, Andijon, Namangan, Jizzax	Qishloq xo'jaligiga tayangan iqtisodiyot, ishlab chiqarish kichik biznesda to'plangan, xizmatlar sohasi o'sib bormoqda, lekin sekin sur'atda, ishsizlik va migratsiya salohiyati mavjud
4-klaster: Barqarorlikka erishayotgan va strategik hududlar	Qoraqalpog'iston Respublikasi, Sirdaryo	O'zgaruvchan o'sish dinamikasi, infratuzilma zaif, lekin so'nggi yillarda sezilarli rivojlanish (Xususan, Qoraqalpog'istonda 2023-2024 yillarda YAHM o'sishi 108 % dan yuqori), iqlimiy va geografik murakkabliklar ta'sirida rivojlanish notekis

Manba: muallif tahlillari asosida tuzilgan.

3-jadval

Hududlar bo'yicha umumlashtirilgan SWOT tahlili

Hudud	Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)	Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
Qoraqalpog'iston	Tabiiy resurslar (gaz, uran), Amudaryo	Iqlim muammolari, ekologik inqiroz (Orol), past aholi zichligi	Eko-turizm, muqobil energetika, irrigatsiya	Suv muammosi, migratsiya, ekologik tahdid
Andijon	Yirik sanoat markazi, transport infratuzilmasi rivojlangan	Yer resurslari cheklangan, ortiqcha aholi zichligi	Chegara savdosi, xizmatlar sohasi kengayishi	Ishsizlik, migratsion bosim
Buxoro	Turizm salohiyati (tarixiy shahar), tabiiy gaz	Sanoat zaif rivojlangan, suv tanqisligi	Madaniy turizm, gaz sanoati modernizatsiyasi	Iqlim isish, investitsiyaviy cheklovlar
Jizzax	Qulay agroiklim, erkin iqtisodiy zona	Kam sanoatlashtirilgan, ish o'rinlari yetishmasligi	Yangi korxonalar uchun hududiy imkoniyatlar	Yoshlar ishsizligi, infratuzilma zaifligi
Qashqadaryo	Sanoat (neft-gaz), yirik aholi bazasi	Transport va logistika tizimi cheklangan	Sanoat klasterlari, agrosanoat rivoji	Tabiiy resurslar tugashi, muhit ifloslanishi
Navoiy	Tog'-kon sanoati (oltin, uran), NKMK	Ijtimoiy infratuzilma sust, yashash sifati past	Tog'-kon eksporti, energetika loyihalari	Resurslarga haddan ortiq tayanish
Namangan	Kichik biznes va hunarmandchilik rivojlangan	Yirik sanoat zaif, ijtimoiy bosim yuqori	Savdo-logistika rivojlanishi, texnoparklar	Kadrlar yetishmovchiligi
Samarqand	Turizm, yirik aholi va madaniyat markazi	Transport tirbandligi, ekologik yuklama	Xalqaro turizm, xizmatlar eksporti	Infratuzilma yetishmovchiligi
Surxondaryo	Qishloq xo'jaligi, Afg'oniston bilan savdo	Uzoq geografik joylashuv, xavfsizlik muammolari	Tashqi savdo eshiklari, chegaraviy loyihalar	Siyosiy tahdidlar, energetika qaramligi
Sirdaryo	Agrotexnologiyalar uchun qulaylik, Markaziy joylashuv	Maydoni kichik, sanoat bazasi sust	Logistika markazi, agroinnovatsiya	Suv resurslariga qaramlik
Toshkent viloyati	Katta sanoat salohiyati, poytaxtga yaqinlik	Ichki resurslarga bosim, ko'chmas mulk bosimi	Innovatsion texnoparklar, sanoat hududlari	Demografik bosim, ekologik xavflar
Farg'ona	Yirik iqtisodiy makon, ishlab chiqarish va madaniyat	Ijtimoiy tengsizlik, tabiat resurslari bosimi	Kichik biznes, transport koridorlari	Suv resurslari nizolari
Xorazm	Meva-sabzavot eksporti, turizm salohiyati	Transport aloqalari sust, iqlim muammolari	Agroturizm, IT xizmatlari	Suvsizlik, yoshlar migratsiyasi
Toshkent shahri	Iqtisodiy, moliyaviy va ilmiy markaz	Aholi zichligi, ekologik yuklama	Texnologik rivojlanish, xorijiy sarmoyalar	Ijtimoiy beqarorlik, ortiqcha urbanizatsiya

Manba: muallif tahlillari asosida tuzilgan.

Yuqoridagi klaster tahlil usuli asosida amalga oshirilgan O'zbekiston hududlarining klasterlash mezonlari asosida tahlil natijalaridan kelib chiqib, mamlakatimiz mintaqalarining iqtisodiy xususiyatlari bo'yicha umumiy qilib aytganda, 1-klaster – markazlashgan iqtisodiy hududlar, 2-klaster – resursga boy, lekin diversifikatsiyasi sust hududlar, 3-klaster – agrar va hunarmandchilik salohiyatiga ega, aholi zichligi yuqori hududlar hamda 4-klaster – iqtisodiy barqarorlikka chiqayotgan, lekin rivojlanishda hali ham ortiqcha ehtiyoj seziladigan hududlar kiritilganligini kuzatish mumkin.

SWOT tahlil usuli. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlashda kuchli (S), zaif (W) tomonlar, imkoniyatlar (O) va tahdidlar (T) baholanadi.

Yuqoridagi hududlar bo'yicha umumlashtirilgan SWOT tahlili natijalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, kuchli tomonlar aksariyat hollarda tabiiy resurslar, madaniy meros va sanoat salohiyatiga bog'liq bo'lsa, zaif tomonlar ijtimoiy infratuzilma, ishsizlik, ekologik xavf va iqtisodiy monostrukturaga bog'liq. Imkoniyatlar esa xizmatlar sohasi, turizm, texnologiyalar va eksportni kengaytirishdan iborat, shuningdek tahdidlarga suv tanqisligi, iqlim o'zgarishi, migratsiya va investitsiyaviy xavflarni ko'rsatish mumkin.

Kompozit indekslar usuli. Bu yondashuvda bir nechta ko'rsatkichlar bitta indeksga birlashtiriladi. Jumladan, iqtisodiy barqarorlik indeksi, infratuzilma rivojlanish indeksi va inson kapitalining taraqqiyot indeksi shular jumlasidan.

Jahon amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan asosiy usullardan biri "Iqtisodiy barqarorlik indeksi" (IBI) usulidir. Mazkur indeks YAHM o'sish sur'ati, ishsizlik darajasi, inflyasiya darajasi, davlat byudjeti balansi, tashqi investisiyalar o'sish sur'ati, eksport-import muvozanati (saldo) va soliq tushumlari o'sish sur'ati bo'yicha hisoblanadi.

$$x' = \frac{x - x_{\min}}{x_{\max} - x_{\min}} \quad (1)$$

Ushbu formula orqali barcha ko'rsatkichlar 0 bilan 1 orasiga keltiriladi. Ijobiy ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar (masalan, YAHM o'sishi, investisiya) to'g'ri, salbiylar (jumladan, inflyasiya, ishsizlik) teskari meyorlashtiriladi. Chunki, har bir ko'rsatkichning umumiy indeksga ta'siri bir xil emas. Shuning uchun ularga vazn (w) beriladi (vaznlar yig'indisi 1 bo'lishi kerak).

$$IBI = \sum_{i=1}^n (w_i \cdot x'_i) \quad (2)$$

Bu yerda, w_i – i -ko'rsatkich vazni, x'_i – meyorlashtirilgan i -ko'rsatkich, n – ko'rsatkichlar soni.

Amaliyotda "Iqtisodiy barqarorlik indeksi" bo'yicha baholashda quyidagi chegaraviy mezonlar qabul qilingan:

- 1) 0,80 – 1,00 – yuqori barqarorlik;
- 2) 0,60 – 0,79 – barqaror;
- 3) 0,40 – 0,59 – o'rtacha barqaror;
- 4) 0,20 – 0,39 – barqaror emas;
- 5) 0,00 – 0,19 – xavfli barqarorsizlik.

"Iqtisodiy barqarorlik indeksi" bo'yicha O'zbekistonning 2024-yildagi umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlari YAHM o'sish sur'ati 6,5 %, inflyatsiya darajasi 10,6 %, ishsizlik darajasi (o'rtacha hisobda) 4,5 % va davlat byudjeti defitsiti YAHMning 3,3 foizini tashkil etgan.

Mazkur indeks asosida ayrim hududlar bo'yicha tahlillar quyidagi natijalarini ko'rsatdi:

1. Yuqori barqarorlikka ega hududlar:
- Toshkent shahri – YAHM o'sish sur'ati 10,0 %;

- Farg'ona viloyati – YAHM o'sish sur'ati 106,7 %, investitsiyalar o'sish sur'ati 134,7 %, sanoat o'sish sur'ati 107,4 %, xizmatlar o'sish sur'ati 111,0 %;

- Samarqand viloyati – YAHM o'sish sur'ati 106,3 %, investitsiyalar o'sish sur'ati 133,7 %, sanoat o'sish sur'ati 105,0 %, xizmatlar o'sish sur'ati 114,0 %.

2. O'rtacha barqarorlikka ega hududlar:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi – YAHM o'sish sur'ati 104,3 %, investitsiyalar o'sish sur'ati 124,6 %, sanoat o'sish sur'ati 103,1 %, xizmatlar o'sish sur'ati 107,3 %;

- Qashqadaryo viloyati – YAHM o'sish sur'ati 105,4 %, investitsiyalar o'sish sur'ati 87,2 %, sanoat o'sish sur'ati 105,7 %, xizmatlar o'sish sur'ati 111,2 %;

- Surxondaryo viloyati – YAHM o'sish sur'ati 105,0 %, investitsiyalar o'sish sur'ati 101,7 %, sanoat o'sish sur'ati 103,6 %, xizmatlar o'sish sur'ati 110,5 %.

Tahlillardan kelib chiqib umumiy qilib aytganda, mamlakatimiz hududlarining 2024-yildagi iqtisodiy ko'rsatkichlari umumiy jihatdan ijobiy bo'lib, ko'plab hududlarda iqtisodiy barqarorlik kuzatilmoqda. Xususan, Toshkent shahri, Farg'ona va Samarqand viloyatlari yuqori iqtisodiy barqarorlikka ega bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'rtacha barqarorlik kuzatilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, mamlakatimiz mintaqalarini yanada rivojlantirishning istiqbolli strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirilishida quyidagi yo'nalishlarini e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

- mintaqaviy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish. Bunda hududiy ixtisoslashuvni, aholining ehtiyoj va manfaatlarini inobatga olish, infratuzilmani rivojlantirish, investision muhitni yaxshilash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, sohaviy diversifikasiya va innovasiyalar, klasterli yondashuv va kooperasiya, samaradorlik va monitoring tizimlariga alohida e'tibor qaratish lozim;

- infratuzilmaviy investisiyalarni yo'naltirish. Bunda hududiy talab va ehtiyojlarga asoslangan yondashuv, iqtisodiy faollik nuqtalariga bog'lash, transport va logistika tarmoqlarini yaxshilash, energetika ta'minotini mustahkamlash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, agrar infratuzilmani rivojlantirish, raqamli infratuzilma, hamkorlik asosida moliyalashtirish mexanizmlari hamda ekologik barqarorlik va inklyuzivlikka yo'naltirilgan investisiyalar salmog'ini oshirish kerak;

- hududlararo iqtisodiy tenglikni ta'minlash. Jumladan, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikni aniqlash, iqtisodiy ixtisoslashuv va kooperasiyani rag'batlantirish, infratuzilmani teng rivojlantirish, soliq va investisiya siyosatini hududiy diversifikasiyalash, ijtimoiy adolat va imkoniyatlar tengligi, ta'lim va mehnat bozorini moslashtirish, davlat moliyaviy yordamini hududlar kesimida maqsadli taqsimlash hamda hududiy siyosatda monitoring va baholash tizimini joriy etish shart;

- maqsadli subsidiyalar va soliq imtiyozlari berish. Bunda aniq maqsadga yo'naltirilganlik, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash, hududiy nomutanosiblikni kamaytirish, sohaviy ustuvor yo'nalishlarni rag'batlantirish, vaqtinchalik va bosqichma-bosqich amal qilish, ochiqlik va shaffoflik, byudjetga yuklama darajasini nazorat qilish, soliq mafkurasi va raqobat muhitini saqlash kabi tamoyillarga asoslanishi lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini baholash murakkab bo'lib, ammo juda muhim jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonda statistik ma'lumotlar, ekspert baholari va zamonaviy tahliliy usullardan foydalanish talab etiladi. Chunki, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini to'g'ri baholash muvaffaqiyatli hududiy siyosatning asosini tashkil etadi.

Mintaqalarni baholashda kompozit indekslar, klaster tahlil, SWOT tahlil, dinamik va trend tahlillari kabi uslublardan foydalanish, turli hududlarning iqtisodiy holati, ustuvor yo'nalishlari hamda muammolarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hududlararo

iqtisodiy tenglik, infratuzilmaviy investisiyalar, maqsadli subsidiyalar va imtiyozlar, shuningdek inklyuziv rivojlanish tamoyillari ham hisobga olinishi zarur.

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Berkinov B.B. va boshq. (2010) *Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash. O'quv qo'llanma* – T.: TDIU, 216 b.

Fazliddinova Z.A. (2024) *Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini raqamli texnologiyalar asosida tahlil qilish uslublari*. by cedradminuz - Oktabr 4, <https://cedr.uz>.

Grishina I.V., Polynev A.O. (2021) *Assessment of the Socio-Economic Situation of the Regions as a Tool for Realizing the National Development Goals of Russia. Part of the book series: Lecture Notes in Networks and Systems (LNNS, volume 200, 2021)*, Springer, Cham, pp. 793-800.

Mirziyoyev Sh.M. (2021) *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. Toshkent: "O'zbekiston", 131-170 b.

Qulmatov A.A. (2020) *Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanish omillari* // *Iqtisod va moliya / Экономика и финансы*, 2(134) 152-158 b.

Rajabov A.X. (2024) *Mintaqani barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini klasterli yondashuvlar asosida tahlili* // *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2/2024, 133-140 b.

Sodiqov A.M. (2024) *Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini kompleks o'rganish va baholash*. (Elektron resurs) <https://pdfbox.uz/doc/iqtisodiyot/16411-hududlar-ijtimoiy-iqtisodiy-rivojlanish-darajasini-kompleks-organish-va-baholash>.

Xolbekova F.R. (2020) *Mintaqalar iqtisodiy o'sishini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar tahlili* // *"Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar"* ilmiy elektron jurnali. No 3, may-iyun., 115 b.